



Editorial Team

Dr. Oro Cabanas

Available at <http://ivicollpolinema.com/index.php/IJL>

The scope of the journal includes but is not limited to

- Proto-Germanic to Old English
- Middle English
- Early Modern English
- Spread of Modern English
- Pluricentric English
- English as a global language
- Phonology
- Grammar
- Vocabulary
- Writing system
- Dialects, accents, and varieties

International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding.

Conference form: correspondence Internet conference.

Working languages: Indonesian, Russian, Uzbek, and English.

Indexed Google scholar, Zenodo

Indonesia 2022
©Collective of authors

ISSN : 2746-8402

Indexed by:



INTERNATIONAL VIRTUAL CONFERENCE ON

LANGUAGE AND LITERATURE PROCEEDING

Publisher: Malang, Politeknik Negeri Malang
Medium: Online
Country: Indonesia

International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding. 2022

Ushbu musiqiy terminlar yaxlit komponent tarzida tojik tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan. Uning tarkibidagi prefiks element umumiylar mazmunga son jihatdan aniqlikni bergan. Demak, prefiks elementlarning qo'shma terminlari faqat belgi ifodalabgina qolmay, balki o'zi qo'shilgan otning sonini ham ifodalab kelar ekan. O'zbek tilida bunday prefiks elementlarning kattagini qismini fors tilidan o'zlashgan elementlar tashkil qildi. Shuningdek, birgina *shashmaqom* terminining shakllanishi va rivojanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, *shash* forscha element, *maqom* esa arab tiliga xos ekanini ko'rishimiz mumkin.

Bilamizki, qo'shma terminlarning komponentlari genetik materialiga ko'ra turli Shunga ko'ra, ya'mi qo'shma terminlarni ularni tashkil etgan komponentlarning kelib chiqish materialiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1)bir tildagi qatlama mansub so'z birliklaridan hosil etilgan qo'shma terminlar.
- 2)urli tillarga mansub so'z birliklaridan hosil etilgan qo'shma terminlar. *Shashmaqom* termini ikkinchi guruh terminlariga misol bo'la oladi. Bundan xulosa chiqadiki ushbu termin yaxlit komponent shaklida o'zbek tiliga tojik tilidan o'zlashgan. Garchi musiqiy terminlarning shaklan grammatic ko'rsatkichlarga teng bo'lsa-da, ulardan farqli ravishda o'z semantikasiga ega, qo'shma so'z tarkibida hamma ma'noviy qirralarini yo'qotmaydi va har qanday mustaqil leksemaga xos bolgan xususiyatlarni o'zida namoyon etadi. Eikrimiz so'ngida shuni aytmoqchimizki, o'zbek tilida musiqiy terminlarning shakllanishi va rivojanishini tadqiq etish orqali tillararo aloqa til tarkibi, terminologik tizimning umumbaynalmilal xususiyatlarga ega ekanligi va boshqa ko'pgina xususiyatlarni aniqlash mumkin. "Musiqiya til-tanlamaydi" jumlasining zamirida ham mana shunday musiqiy terminlarning hissasi bor. Chunki, xalqaro musiqiy terminlarni hosil qilishda ishtirok etadigan bunday elementlar deyarli barcha tillar tarkibida mavjud.

O'ZBEK TILIDA MUSIQIY TERMINELEMENTLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Eshbo'tayeva Shohsida Toshnazarovna,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

O'zbekiston, Toshkent

shohsidaeshbotayeva92@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi musiqa sohasiga oid teminlar, ularning hosil bo'lish usullari hamda boyish manbalari tahlil etilgan. Tillarning o'zaro integratsiyasi aniqlangan.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, musiqiy terminologiya, gibrit termin

Tillararo o'zaro ta'sir natijasida o'zbek tili tarkibiga ham o'zga tillarga oid bir qator termin va terminelementlar kirib kelmoqda. Tarkibida terminelement bo'lgan terminlar nisbatan to'la aniqlikka ega. Bunday elementlar xalqaro hisoblanib, ko'pgina tillar tarkibiga singib ketgan "Xalqaro elementlar, asosan, klassik tillar hisoblangan yunon va lotin tillariga oid o'zak, prefix hamda suffikslardan iborat".¹ Ular o'zlari bildirgan tushunchaning belgisi, soni va boshqa xuusiyatlari haqida ma'lumot beradi. Bunday terminelementlar musiqiy terminologiyada ham ko'pgina terminlarni yasashda faol ishtirok etadi. O'zbek tiliga bunday musiqiy terminlar rus tili orgali kirib kelgan. Masalan

Politonallik-ko'p ovozli musiqada bir yo'la harakat qiluvchi ovozlarining turli tonallikkida kelishi. *Poly-yunoncha "ko'p"*. *Tonallik* rus tilidagi "тональность" so'zining aynan tarjimasi. Laddagi tovushlarning balandligi

Polimetriya- (yun. Poly - ko'p, metron-o'Ichov, miqdor) ko'p ovozli musiqada turli metrdagi taktlarning bir vaqtida qo'shilish kelishi.

Polifoniya (yun. poly- ko'p. phone - tovush, ovoz) ko'p ovozli musiqa turi, har biri alohida mustaqillikka ega bo'lgan bir necha kuyning garmonik qo'shilish, murakkablashib rivojlanishi.²

Mazkur tipdagi terminlar, ya'nin yunon va lotin tillari materiallardan shakllangan terminlar ikkiga bo'linadi: o'zlashtirilgan xalqaro terminlar va yunon va lotin tillari materiallari asosida rus tili bazasida yaratilgan terminlar Yuqoridaq musiqiy terminlar o'zbek tiliga rus tilidan yasalma tarzida qabul qilingan. Ushbu terminlar umumbaynalmlil hisoblanib, xalqaro terminlarni yasashga asos bo'lgan bunday terminelementlar prefiksai, interfiksai va postfiksai ko'rinishlarga ega.

Poly – prefiksai element hisoblanadi.


Ya'nin: prefiksai+asos tarzida so'z yasaydi. Musiqiy terminlarni yasashga xizmat qilgan prefiksai elementlar o'z ma'nosini saqlab qoladi va yangi asosning ma'nosiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday terminelementlar nafaqat yunon va lotin tillariga xos, balki, boshqa tillarda ham shunday elementlar borki, ular umumterminlarni hosil qilishda yetakchi element bo'lib ishtirok etadi. Fikrimiz isboti sifatida fors tilidagi shash – olti so'zi Shashmaqom san'ati tarkibidagi ko'pgina musiqiy terminlarni yasashda terminelement vazifasini bajarganini ko'rishimiz mumkin;

Shashmaqom – olti maqom.

Shashtor – olti torli tanburning bir turi.

¹ Madvaliyev A.O'zbek terminologiyasi va leksikografiyası masalaları. T.: 2017. – B.35

² Akbarov I. Musiqalug'ati. – Toshkent, 1997. – B. 226-227.



International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding, 2022

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarov I. Musiqa lug'ati. – Toshkent, 1997. – B.226-227
2. Madvaliyev A.O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari.
T.: 2017. – B.35